

O'RTA OSIYODA IJTIMOIIY VA GUMANITAR TADQIQOTLAR-Jurnali 1-son. 1-qism. Sentyabr-2025

NAVOIY FARDLARIDA XALQONA IBORALAR TAVSIFI

Nazarova Sabrina, NamDU 4-kurs talabasi,

Email: nazarovasabrina046@gmail.com

Annotatsiya: Ushbu maqolada Alisher Navoiy ijodining xalq og'zaki ijodi, xususan, maqollar, naql va xalqona iboralar bilan mushtarak jihatlari tahlil qilinadi. Mumtoz adabiyotimizdagi eng kichik lirik janrlardan biri – fardlar misolida Navoiy poetikasidagi xalqona ohang, hikmatli ifodalar va tasavvufiy ruh yoritiladi. Fardlarning shakl va mazmun jihatidan xalq maqol va naqlariga yaqinligi misollar orqali ko'rsatiladi. Shuningdek, fardlar vositasida yosh avlodni ma'naviy tarbiyalash masalasi ham muhokama qilinadi.

Kalit so'zlar: fard, aruz vazni, xalqona ibora, hikmat, tasavvuf, tarbiya, Navoiy lirikasi.

Annotation: This article analyzes the connection between Alisher Navoi's poetry and Uzbek oral folk traditions, especially proverbs and idiomatic expressions. The focus is on "fards" — the shortest lyrical genre in classical literature — which reflect folk motifs, moral lessons, and mystical elements. Through examples, the article explores how the form and meaning of Navoi's fards align with traditional Uzbek wisdom. Additionally, the pedagogical value of these concise poetic forms in shaping the moral upbringing of youth is discussed.

Keywords: fard, aruz meter, folk phrase, wisdom, mysticism, education, Navoi's lyrics.

Аннотация В статье рассматриваются взаимосвязи поэзии Алишера Навои с устным народным творчеством узбекского народа, особенно с пословицами и народными выражениями. На примере самого малого лирического жанра — фардов — анализируются народные мотивы, нравственные наставления и суфийские образы в поэтике Навои. Приводятся примеры близости фардов к народной мудрости как по содержанию, так и по форме. Также обсуждается воспитательное значение этих кратких стихотворных форм для подрастающего поколения.

Ключевые слова: фард, аруз, народные выражения, мудрость, суфизм, воспитание, лирика Навои.

O'RTA OSIYODA IJTIMOIIY VA GUMANITAR TADQIQOTLAR-Jurnali

1-son. 1-qism. Sentyabr-2025

Kirish. Xalqimiz azal-azaldan og'zaki ijodning bebaho namunalari bilan dunyoga tanilgan. Buyuklarga beshik bo'lgan o'zbek xalqi folklori tadqiqotchilarning yirik o'rganish manbalaridan biri bo'lib kelmoqda. Folklor bugungacha yashab o'tgan barcha benazir ijodkorlarning ijod qilishiga turtki bo'lib kelgan. Nafaqat bu ijodkorlarning, balki butun bir millatning quyoshi bo'lgan Mir Alisher Navoiy she'riyatini ham folklor – xalq og'zaki ijodi bezab turadi. Navoiyning nasriy asarlarida, jumladan, “Mahbub ul-qulub”, “Tarixi muluki Ajam”, “Tarixi anbiyo va hukamo” kabi asarlaridagi bir qator hikoyatlarning yuzaga kelishida xalq ijodiga oid afsona, asotir, rivoyat, qissa va boshqa janrlarning o'rni muhim ekani kuzatiladi [1, 190]. Agarda nazmga to'xtalinsa, bobomizning barcha lirik janrdagi asarlarida xalq ijodi bilan hamohanglik, uyg'unlik yetakchi o'rin tutadi. Xalq folklori shoir she'riyatiga alohida ta'sir o'tkazgan. Katta hajmdagi lirik asarlari, xususan, “Xamsa” asari, “Xazoyin ul-maoniy”, “Badoye' ul-bidoya”, “Navodir un-nihoya”, “Devoni Foni” singari kulliyotlari ham xalq iboralariga boydir, biz esa quyida lirikadagi eng kichik va tanho, Hazrat ijod qilgan 16 ta janrdan biri, adabiyotimiz xazinasida o'ziga xos o'ringa ega bo'lgan fard janri va ushbu janrda ustalik bilan qo'llangan xalqimiz iborolari va xalqchilik to'g'risida muhokama qilamiz.

Tadqiqot metodologiyasi. Tadqiqotimizda emotsionallik va ekspressivlikning she'riy matnda ifodalanishini tahlil qilishda lingvopoetik tahlil, uslubiy tahlil, umumlashtirish, tasniflash, tavsiflash usullaridan foydalandik.

Muhokama va adabiyotlar tahlili. Fard so'zi arab tilida “yakka”, “yolg'iz” degan ma'noni anglatadi. Yaqin va O'rta Sharq adabiyotidagi eng kichik lirik janrdir. Hajmi bir bayt, ya'ni ikki misradan iborat bo'ladi [2, 632]. Garchi eski tilimizda bu atama g'azalning alohida ajralib turadigan, eng ta'sirchan bir bayti, ya'ni shohbayt ma'nosida ham ishlatilgan bo'lsa-da, hozir bu so'z o'zbek mumtoz adabiyotida alohida, mustaqil lirik janrni ifodalaydi. Muayyan mazmun, g'oya ilgari suriladi, badiiy umumlashmada, hayotiy tajribadan kelib chiquvchi hukm, xulosa mujassamlanadi. Aynan shuning uchun ham bu janrdagi she'r xalqona ohangda o'qiladi va his qilinadi. Xuddi g'azalning matlasi kabi a-a tarzida qofiyalanadi, ba'zan esa fard misralari o'zaro qofiyalanmasligi ham mumkin.

Alisher Navoiy o'z fardlarida umuminsoniy tarbiya to'g'risidagi fikrlarni bayon qiladi, ya'ni ko'rgan-kechirganlaridan chiqargan xulosasining mag'zini aytib qo'ya qoladi. Fardlar xalq maqoli yoki hikmatli so'z kabi jaranglaydi., kuchli ta'sirchanlikka

O‘RTA OSIYODA IJTIMOIIY VA GUMANITAR TADQIQOTLAR-Jurnali

1-son. 1-qism. Sentyabr-2025

ega bo‘ladi, qolaversa, tez yod olinadi. Janrning ko‘plab namunalarida pand-nasihat ustunlik qiladi. Navoiy fardlarda Haqni tanish, Muhammad (s.a.v) ga ergashish va har bir inson o‘z maqsadi yo‘lida yolg‘iz o‘ziga tayanish, suyanish kerakligini uqtiradi [3, 529]. Shu bilan birga inson fazilatlariga atroflicha yondashadi va bayt keltiradi. Fardlar tarkibida zohiriy va botiniy ishq mavzusiga oid fardlar ham alohida ahamiyat kasb etadi. Navoiy mustaqil asar sifatida bitilgan barcha fardlarini bir yerga jamlab, “Favoyid ul-kibar” nomli devon tartib beradi.

Men – sinuq, ko‘nglum – sinuq, sabrim uyi xud – yerga past,
Bilmagay holim shikastin ko‘rmagan muncha shikast.

Mazkur fard ramali musammani maqsur vaznida bitilgan. Unda shoirning hasbi holi ifodalangan bo‘lib, bu yerda ikkita arabiy (sabr, hol), uchta forsiy (xud, past, shikast) so‘zdan tashqari barcha kalimalar sof turkiydir. Dono xalqimizda shunday naql bor: “Tanasi boshqa dard bilmas”. Navoiy bu o‘rinda xuddi shu ma’noda so‘zlaydi, ya’ni uning zabun ahvolini bu azoblarni ko‘rmaganlar mutlaqo anglamaydilar. Fard mazmuniy jihatdan xalqimiz maqollariga juda yaqindir. Faqat buni bilish uchun o‘quvchidan fikrlash talab etiladi. Yana bir asar borki, uni bir o‘qishdayoq tanish xalq naqli esga olinadi:

Yuqar yamonlig‘ angakim, kirar yamon el aro,
Ko‘mur aro ilik urg‘an qilur ilkini qaro.

“Qozonga yaqin yursang, qorasi yuqadi”. Bu ikki jumla shaklan va mazmunan bir-biriga nihoyatda yaqindir. Birgina baytda shoir ulkan haqiqatni ochmoqda. Ko‘mirga qo‘l urgan insonning qo‘li qora bo‘lgani singari yomonlarga qo‘shilgan odamga ham yomonlik, albatta, “yuqadi”. Aynan shu fard Navoiy ijodiy g‘oyalarining Qur’oni karim, qolaversa, hadislar bilan ham chamcharchas bog‘liq ekanligini ko‘rsatadi. Navoiy ta’lim va tarbiya mavzusiga oid qimmatli fikrlarini juda ixcham shaklda ifodalay oladigan buyuk so‘z san’atkoridir. Xalqimizdagi qator fazilatlar bilan birga illatlarni ham yoritib beradi.

Ulki, sanga eldin erur aybgo‘,
Elga dog‘i sendin erur aybjo‘.

Keltirilgan bayt ramali musaddasi mahzuf vaznida yozilgan. “Aybgo‘” – “ayb aytuvchi”, “aybjo‘” – “ayb topuvchi” demak [4, 159]. Ya’ni shoir aytmoqchiki, “agar senga kimdir elning ayblaridan aytguvchi bo‘lsa, ishonma, u elga ham sening ayblaringni topib aytuvchi bo‘ladi,” – deyilmoqda. Baytda g‘iybatchi, “tirnoq ostidan

O‘RTA OSIYODA IJTIMOIIY VA GUMANITAR TADQIQOTLAR-Jurnali

1-son. 1-qism. Sentyabr-2025

kir qidiradigan” va munofiq insonlarning yuzlari ochiladi. Xalq folklorida ham “G‘iybatchining dili kir” degan maqol bor. Bu maqol va yuqoridagi fard ham g‘oyaviy jihatdan bir-biriga juda yaqindir. Ko‘rinadiki, xalqimiz o‘gitlari bobomizning beqiyos ijodidan ta’sirlanib yaratilgan. Chuqur ehtimol bilan, Navoiy ham mazkur baytni qog‘ozga tushirayotganda xalq naqlaridan ilhomlangan. Endi esa adabiyotimizdagi noyob javohirlardan biriga e’tibor qaratsak:

“Belu og‘zidin, - dedilarkim, - degil afsonaye”,

Boshladim filholkim: “Bir bor edi, bir yo‘q edi”.

Ushbu fard Navoiyning ko‘plab fardlari kabi ramali musammani mahzuf vaznida bitilgan. Ma’lumki, sharq mumtoz adabiyotida ma’shuqaning qaddi-qomati, ayrim vujud a’zolarini go‘zallik timsoli sifatida ta’riflash an’anasi kuchli bo‘lgan. Jumladan, belining o‘ta ingichkaligi va og‘zining nihoyatda kichikligini ta’riflashda shoirlar o‘zaro musobaqalashgan. Kim oshirib ta’riflasa, o‘sha ijodkor ulug‘langan, maqtalgan. Hazrat Alisher Navoy ijodida bunday ta’rif-tavsiflarning yuksak san’atkorlik bilan bitilgani diqqatga sazovordir. Navoiy yuqoridagi baytda mavjud an’anani davom ettirgan, shu bilan birga o‘ziga xos ilmiy kashfiyot ham qilgan. Ya’ni baytda ma’shuqaning beli va og‘zidan fasona – hikoyat qil dedilar, men esa beixtiyor: “Bir bor edi, bir yo‘q edi,” – deya so‘z boshladim, deydi shoir. Baytdagi yana bir muhim jihat shundaki, ulug‘ shoir davrida ham ertaklar xuddi hozirgidek “Bir bor ekan, bir yo‘q ekan,” – deb boshlangan ekan. Qolaversa, ma’shuqaning go‘zalligini ta’riflaganda shoir hayratining ulug‘vorligini kutilmagan, g‘oyatda munosib sifatlash vositasida bayon etadi. Bu mubolag‘a yuksak mahoratdan dalolatdir [5, 28]. Farddagi tasavvufiy ma’noga e’tibor berilsa, lab yorning kalomi, purma’no so‘zlarining ramziy timsoli sifatida ifodalangan. Oshiq yorning ilohiy sirlaridan voqif bo‘lmoqni istaydi, lekin u gohida bor, gohida esa yo‘q bo‘lib qoladi. Xalqona uslub bilan birgina baytdan ulkan ma’nolarni bunyod qilish va uni o‘quvchiga yetkazib berish faqatgina Alisher Navoiy kabi buyuk shoir va faylasufga xosdir.

Umuman olganda, xalq bilan yakdillik xislatlari, xalqona iboralar Mahmud Koshg‘ariy, Yusuf Xos Hojibdek buyuk bobolarimiz ijodida, qadimgi bitiklarda ham namoyon bo‘ladi. Navoiy asarlari o‘sha davr muhitidagi ijtimoiy holat haqida ham ma’lumot beradi. Shoirning bir baytlik she’ridan ham ajdodlarimiz tilining ifoda va qochirimlarga naqadar boy bo‘lganligini anglash mumkin. Alisher Navoiy nafaqat yirik

O'RTA OSIYODA IJTIMOIIY VA GUMANITAR TADQIQOTLAR-Jurnali 1-son. 1-qism. Sentyabr-2025

hajmli asarlari bilan dong taratdi, balki benazir fardnavis sifatida ham bayroqni o'z qo'lidan qo'ymadi. O'zi aytganidek:

Turk nazmida chu men tortib alam,
Ayladim ul mamlakatni yakqalam.

Xulosa va taklif. Navoiy dahosi taratgan shu'la millat ruhini kamolot sari eltar ekan, uning shaklan qisqa, g'oyaviy yuksak bo'lgan asarlari, xususan, fardlari ham chuqur o'rganilishi kerak. Xususan, pandnoma fardlarning tarbiyaviy hamda badiiy xususiyatlari ilmiy tomonlama ko'proq yoritilsa, maqsadga muvofiq bo'ladi. Bugungi kun yoshlarining tarbiyaviy barkamol bo'lib voyaga yetishida shoirning nasihat tarzidagi fardlari beqiyos o'rin egallaydi. Mazkur pandnomalar hayot yo'lida katta manfaatlar beradi. Shu bois Navoiyning bolalar ongiga oson ta'sir etadigan qisqa ijod mahsullari maktab yoshidagi o'quvchilar uchun ham yana-da "xo'broq" metodlarda yetkazilishi lozim.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Navoiy hikoyatlari shakllanishida folklorning o'rni. Hoshimova A. Scientific Journal Impact Factor. ISSN 2181-1784. T.: 2021, -190b.
2. Ўзбек тилининг изохли луғати. Москва "Рус тили" нашриёти. 1981. ИИ томли А –П. 632с.
3. <http://hozir.org/alisher-navoiy-merosida-umuminsoniy-tarbiya-masalalari.html>
4. Sultonmurod Olim va boshq. "Adabiyot" 8-sinf uchun darslik. 1-qism. – T.: G'afur G'ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2019. – 42b.
5. Sulaymonov M. Navoiyni anglash. "Namangan haqiqati" gazetasi, 2024. – 28b.